# Ubaydiyning “Hikmatlar”i nashr etildi

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, Jahon tillari universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlikda Ubaydiyning “Hikmatlar”i “Movarounnahr” nashriyotida Muhammad Hamzaxon Abdullayev va Jamoliddin Abdullayev tahriri ostida nashr etildi.




XV-XVI asrlarda Buxoro adabiy muhitida shoh va shoir sifatida e'tirof etilgan Ubaydiy adabiy merosida hikmatlardan bo'lak g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, muammo, noma janrlari o'rin olgan. Shoirning “Vafo

qilsang” to'plami 1994-yilda nashr etilgan bo'lsa-da, u ijodiy salohiyati to'la o'rganilmagan ijodkorlar safida edi.

| | |
|---|---|
| والشکر لمن انعم من نعمته | الحمد لمن ادخل في رحمته |
| في امر بديعه وفي حكمته | ان الحکما کلهم حیران |

## حکمت 1

بولسه سلوک ایچینده سالککا رهبر الله
اوز نوری بیرله آنی ایلار منور الله

طالب تاپارغنی سانسیز لطف و رحمتینی
بیرکا همه اول دولت نی قیلغای میسر الله

یادین قلیب اندیشه قیلسا انک اوزونکا پیشه
بولور سنکا همیشه غمخوار و یاور الله

Yangi to'plam – “Hikmatlar” da 1786 baytdan iborat 235 dan ziyod hikmat, diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik ruhdagi “Salavotnoma”, “Sabrnoma”, “Zavqnoma”, “G'ayratnoma” kabi noma janri rivojida ahamiyatli bo'lgan she'rlar, tarjeband, masnaviy, ruboiy, matla'lar o'rin olgan.

Hikmatlar majmuasi Turkiyaning “Nuri Usmoniya” kutubxonasida saqlanayotgan devon asosida tayyorlangan.